



MIGRATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISHNING MEHNAT BOZORIGA TA'SIRI

Odilova Feruza Odilovna

Jizzax shahar 3-sonli maktab o'qituvchisi, tadqiqotchi.

Annotatsiya

Maqola iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida migratsiya jarayonlarini boshqarish jarayonlarini hisobga olgan holda mehnat bozorini davlat tomonidan tartibga solish va mehnat bozoriga birinchi marta kirib kelayotgan yoshlarning migratsiyadagi ishtiroki masalalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar:

Migratsiya, xalqaro migratsiya miqdori qishloq-shahar migratsiyasi, migratsiya saldosi, odam savdosi, zamonaviy bilimlar, daromad manbai, yangi ish joylari.

Email: feruzaodiilova@mail.ru

©2024. O'rolova Aziza Umid qizi

Published by Fast support and result LLC. This is an open access article under the CC BY-NC-ND license



[Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License.](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/)

KIRISH

Migrasion jarayon global ahamiyatga ega bo'lib, davlat doirasidan tashqariga chiqadi va ushbu jarayon (shaxsiy, jamoat va davlat manfaatlar uchun) daromad shakllantirishning asosiy shakllaridan biriga aylanadi. Iqtisodiyotda migrasion harakatlar ishchi kuchi taklifini pasayishiga ta'sir etuvchi omillardan biri bo'lib, uning miqyosi va sur'atlari siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy vaziyat hamda turli hududlardagi mehnat bozorlarining sig'imiga bog'liq bo'ladi. Migrasion harakatlar orqali mehnat resurslarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, qayta taqsimlanishi va takror ishlab chiqarilishi jarayonlari amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqaro Mehnat Tashkiloti hamda Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot mehnat migrantlariga aholining o'zi istiqomat qiladigan mamlakat bir hududidan ikkinchisiga yoki boshqa mamlakatga ko'chib borib, mehnat faoliyati bilan mashg'ul bo'lish ta'rifini beradi. Xususan, Xalqaro Mehnat Tashkilotining 1949 yil 1 iyuldagi "Ko'chmanchi mehnatkashlar to'g'risida"gi 97-Konvensiyasi ta'rifiga muvofiq: "Ko'chmanchi mehnatkash ishlash maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chuvchi shaxsni anglatadi" [1.149 b].

O'zbekiston 2018 yil noyabr oyida xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT) ning to'laqonli a'zosi bo'ldi. 1951 yilda tashkil etilgan XMT migratsiya sohasidagi yetakchi hukumatlararo tashkilot bo'lib,

insonparvarlik va tartibli migratsiya muhojirlar va jamiyatga foyda keltiradigan prinsipga amal qiladi. XMT butun dunyo bo'ylab muhojirlarni qo'llab-quvvatlaydi, o'zgaruvchan migratsiya dinamikasiga samarali javob choralarini ishlab chiqadi va shuning uchun migratsiya siyosati va amaliyoti bo'yicha tavsiyalarning asosiy manbai hisoblanadi.

Ma'lumki, mamlakatda keyingi yillardagi migratsiya jarayonlari asosan aholining mehnat faoliyati bilan bog'liq. Rivojlanayotgan davlatlarning asosiy qismida ishchi kuchlarining doimiy (legal va nolegal) ko'chib yurishi tabiiy hol hisoblanadi. Hududiy jihatdan tashqi va ichki migratsiya farqlanib, tashqi migratsiya mehnat resurslarining xorijiy mamlakatlarga ish izlab borishlari, ichki migratsiya esa mamlakatning qishloq joylaridan yirik shaharlar hamda sanoati taraqqiy etgan hududlarga yo'naltirilganligi bilan izohlanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki aholi migratsiyasining mexanik harakati tadqiqoti bo'yicha xalqaro migratsiyada erkaklar, ichki migratsiyada ayollar faol harakat qilishlarini ko'rsatadi. Ichki migratsiya unchalik zararli hisoblanmasada, mehnat samarasiga, ish bilan bandlilik darajasi, ishlab chiqarish madaniyati va kadrlar malakasiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatib turadi. Ichki migratsiya mamlakat aholisini ayniqsa yoshlarni hududiy taqsimlash, kasbiy harakatchanliklarini oshirishga salmoqli ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat bozorining shakllanishiga taʼsir qiluvchi omillarni oʻrganishda bu borada olimlarning tadqiqotlariga eʼtibor qaratamiz: Kasbiy harakatchanlik mahalliy olimlardan L.P.Maksakovaning eʼtirof etishicha “Ichki, xususan qishloq-shahar migratsiyasi aholining faol harakatchanligini belgilaydi hamda bu aholining maʼlumot oshirishlari, yangi kasb, mutaxassislikni egallashlari, malakalarini oshirishlari va kasbiy harakatchanliklarida qudratli omildir” [2.331 b].

Shu oʻrinda migratsiya jarayonida ishtirok etish qarori ishsizlik emas, balki daromad manбайдan qoniqmaslik hisoblanadi. Biz tomonimizdan Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida oʻtkazilgan sosiologik soʻrovnomada mehnat bozoriga birinchi marta migrasion jarayonda ishtirok etishni quyidagicha izohlaganlar: daromad manbaining kamayishi, avvalgi ish oʻrnida mehnat qilishni davom ettirishning imkoniyati yoʻqligi, qiziqish va hakazo. Soʻnggi yillarda migrantlarni qabul qiladigan davlatlarning yoshlar siyosatida munosabatlari oʻzgarib, ularning migratsiyada ishtirok etish imkoniyatlari kengaymoqda.

Oʻzbekistonda har yili umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarini 650 mingga yaqin yoshlar bitiradi, ularning 160-165 ming nafari oliy oʻquv yurtlarining bakalavriat dasturiga qabul qilinadi. Oʻzbekiston iqtisodiyotida yiliga oʻrtacha 300 mingdan ortiq yangi ish oʻrinlari yaratilmoqda, natijada 200 mingga

yaqin yoshlar mustaqil ravishda, jumladan, xorijdan ish qidira boshlaydi.

Bugungi kunda Oʻzbekistondan mehnat migratsiyasining ayrim yoʻnalishlari davlat tomonidan tartibga solinadi va boshqariladi. 2022 yil 1 aprel holatiga koʻra, mamlakat tashqarisidagi Oʻzbekiston mehnat muhojirlari soni 2,4 mln. ulardan 76 foizini erkaklar va 24 foizini ayollar tashkil etadi. Oʻzbekistondan asosan past malakali ishchilar va oʻrta maxsus maʼlumotga ega boʻlganlar chiqib ketadilar. Bugungi kunda muhojirlarning aksariyati 51,6 foizi qurilish, 12,3 foizi qishloq xoʻjaligi, 9,2 foizi sanoat, 8,5 foizi savdo va boshqalar kabi sohalarda ishlab kelmoqda [3].

L.P.Maksakovaning fikricha migrant ishchilar xorijdagi korxonalarda ishni tashkil etishdan tashqari, uni boshqarish, bozor iqtisodiyoti koʻnikmalarini shakllantirish, zamonaviy bilimlarni oʻrganib, texnologik tajriba va malakalarini boyitib qaytadi. Shuningdek, ishchi kuchini eksport qilish respublika valyuta tushumlarining sezilarli manbai boʻlib qoladi va natijada ushbu daromad hisobiga yangi ish joylari barpo etish imkoniyati ortmoqda [4.131].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida dialektik va tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, usullaridan foydalanildi. Bu borada Oʻzbekiston Respublikaning Konstitutsiyasi, qonunlari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari ham oʻrganildi va muammoning kompleks oʻrganish uchun moliya,

maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi faoliyatiga doir ma'lumotlardan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasida migrasion jarayonni tartibga solish mexanizmini yanada takomillashtirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa mamlakat fuqarolarining qonuniy hujjatlarga muvofiq hukumatlararo, idoralararo shartnoma va bitimlar asosida mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga chiqish huquqiga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashish borasida yurtimizda ham qator huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga odam savdosi transmilliy, ya'ni hudud va chegara tanlamaydigan jinoyat ekanligi hisobga olinib, davlatimiz 2003 yil 12 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1950 yilda qabul qilingan "Odam savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiyaga qo'shildi.

Shu o'rinda qishloq-shahar migratsiyasi intensivligiga e'tibor qaratsak O'zbekiston mintaqalari bo'yicha katta farqlar kuzatiladi. Qishloq aholisi Toshkent shahriga, viloyatlarning markazlariga intensiv ravishda kirib kelmoqda. Qishloqdan shaharga bo'lgan migrasion oqim o'ziga xos tavsiflariga ham ega.

O'zbekistonda migratsiya jarayonlarini tartibga solishni takomillashtirish uchun quyidagi chora-

tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- qonuniy mehnat migratsiyasini kengaytirish va noqonuniy mehnat migratsiyasini cheklashga asoslangan chora-tadbirlarni yanada kengaytirish;

- yosh migrantlarga jahon mehnat bozorida raqobatga bardosh berishga ko'maklashish maqsadida ikki tomonlama kelishuv shartnomalarini takomillashtirish;

- yoshlar orasida migrasion jarayonlarda noqonuniy faoliyatni cheklash uchun mavjud qonunchilik asoslarining mohiyatini tushintirish ishlarini yanada takomillashtirish;

- noqonuniy migratsiyaning inson huquqlari shuningdek xalqaro standartlar va davlat ichki qonunlarining buzilishiga sabab bo'lishi, odam savdosiga imkon yaratishi haqida ta'lim muassasalarida va mahallalarda tushintirish ishlarini yanada kengaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. –T.: Adolat. 2004. -149 b.
2. Максакова Л.П. Узбекистан в системе международных миграций //Электронная версия бюллетеня "Население и общество". Центр миграционных исследований. Институт народнохозяйственного прогнозирования РАН. М.: ИТ АдамантЪ 2009. 331 с.
3. Migratsiya jarayonlari, muammolari va mehnat migratsiyasini tartibga solish

imkoniyatlari. 2022.

<https://strategy.uz/index.php?news=1813>

4. Максакова Л.П. Миграция и рынок труда в странах Средней Азии. Ташкент.: Брейд-Стайл. 2002 ст.131.

5. Odam savdosiga qarshi kurash to'grisida qaror. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2008 yil. 16-son. 118 modda. <http://www.lex.uz>.